



**Mavzu: O'zbekiston va  
jahon hamjamiyati**



## *REJA:*

1. O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.
2. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.
3. O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.





## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATI VA HALQARO FAOLIYATI**

- ❖ O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining normalari va tamoyillariga,
- ❖ "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida" gi qonunga,
- ❖ "Mudofaa to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga,
- ❖ O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasiga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamda Evropada xavfsizlik va hamkorlik Tashkilotining printsiplari va maqsadlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi.

“O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida” gi Qonuni 1-modda





## ***O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI***



- ❖ davlatlarning suveren tengligi
- ❖ kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik
- ❖ chegaralarning daxlsizligi
- ❖ nizolarni tinch yo'l bilan hal etish
- ❖ boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik
- ❖ halqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi IV bob, 17-modda



## *O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi*

- ❖ O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 2 martda Birlashgan Millatlar tashkilotining a'zosi bo'ldi.
- ❖ BMT bilan hamkorlikdagi asosiy yo'nalishlar bu –xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashish;
- ❖ ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik;
- ❖ Afg'onistonni qayta tiklash;
- ❖ ekologik muammolarni yechish,
- ❖ shu jumladan Orol fojiasi oqibatlarini yengillashtirish;
- ❖ ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish;inson huquqlarini himoya qilish masalalaridir.



## O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi

O'zbekiston Respublikasi xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha erishilgan yutuqlarni qo'llab-quvvatlaydi. Biroq terrorizmga qarshi kurash borasida amaliy natijalarga faqat BMT doirasida hamkorlik bo'yicha global tizimni yaratish yo'li bilangina erishish mumkin.

"Hozir hammaga bitta haqiqat ravshan bo'lishi shart: hech bir inson, hech bir davlat, butun insoniyatga tahdid solayotgan yovuzlikni bartaraf etish yo'lida kurashdan chetda qololmaydi"

*Islom Karimov*





## *O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi*

O'zbekiston Respublikasi BMTning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha barcha 13 konventsiyasi ishtirokchisi bo'lib, jahon hamjamiyatining ushbu xavfga qarshi kurash borasidagi harakatlarini birlashtirish yuzasidan ko'plab amaliy tashabbuslarni ilgari surdi



# ***O'ZBEKISTONNING NUFUZLI XALQARO TASHKILOTLAR BILAN ALOQALARI:***



**O'zbekiston – BMT**



**O'zbekiston – ShHT**



**O'zbekiston - MDH**



**O'zbekiston - YXXT**





**Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)** — yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa San-Fransisko konferensiyasida 1945-yilda qabul qilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000-yilda esa ular soni 189 ga yetdi. BMTning doimiy ish o'рни (shtab kvartirasi) — Nyu York.



*BMT Ustavida uning 6 ta asosiy organlari ko'rsatilgan.*

*Ular quyidagilardir:*

**Bosh Assambleya;**

**Xavfsizlik Kengashi;**

**Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS);**

**Vasiylik bo'yicha Kengash;**

**Kotibiyat;**

**Xalqaro Sud.**

**Bosh Assambleya** — suveren davlatlarning haqiqiy demokratik vakillik organidir. Har bir a'zo davlat hududining hajmi, aholining soni, iqtisodiy va harbiy qudratidan qatyi nazar, bir ovozga ega. Bosh Assambleyaning muhim qarorlari ovoz berish jarayonida ishtirok etayotgan davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadi.



**Xavfsizlik Kengashi** — BMTning eng muhim organi bo‘lib, 15 a‘zodan iborat. Ushbu a‘zolarning beshtasi (AKSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya va Xitoy) doimiy, kolgan o‘ntasi nadoimiy bo‘lib, ular saylanadilar.

**Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS)** xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik masalalariga doir faoliyatni olib boradi. EKOSOS 54 a‘zodan iborat bo‘lib, ular Bosh Assambleya tomonidan uch muddatga saylanadilar va har yili vakolatlari tugagan 18 a‘zoning o‘rniga yangilari saylab boriladi.

**Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti.** 1946 yilda tashkil etilgan bo‘lib, qarorgoxi Jeneva shaxrida. Uning asosiy faoliyat sohadari yukumli kasalliklarga qarshi ko‘rash, karantin va sanitariya qoidalarini ishlab chiqish va ijtimoiy xarakterdagi masalalardir. Xalqaro Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti Sog‘liqni Saqlash tizimlari ishlarini tashkil etishda, samaradorligini oshirishda, kadrlar tayyorlash va kasalliklarga qarshi ko‘rashda kumaklashadi.



**BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO)** 1945 yilda tashkil etilgan, qarorgohi Parij shahrida.

YUNESKOning asosiy maqsadi davlatlar o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikning va ommaviy axborot vositalarining ishlatilishi yo'li bilan xalqaro tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdan iborat. Jahon intellektual mulk tashkiloti 1967 yilda tashkil etilgan, qarorgohi Jeneva shahrida, uning asosiy madsadi bugun dunyoda intellektual mulkni himoya qilish va bu sohadagi xalqaro kelishuvlarni hayotga tadbiq etishdan iborat

**BMTning sanoat taraqqiyoti tashkiloti (YUNIDO)** Bosh Assambleyaning organi sifatida 1966 yil Bosh Assambleyaning 17 noyabrdagi rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan. 1985 yilda YUNIDO BMTning ixtisoslashgan muassasasiga aylantirildi. Uning qarorgoxi Vena shaxrida. YUNIDOning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar sanoatining o'sishiga va ularning tezroq industrializatsiyalashuviga ko'maklashishdan iborat



**BMTning oziq-ovqat tashkiloti va qishloq xo'jaligi (FAO)** 1945 yilda tashkil etilgan. Uning madsadlari oziq-ovqatlar sifatini yaxshilash, aholi turmush tarzini yaxshilash, qishloq xo'jaligi hosildorligini oshirish, oziq-ovqat maxsulotlari taqsimoti tizimlarini yaxshilash singarilardan iborat.

**Qishlok xo'jaligini rivojlantirish xalqaro Fondi (IFAD)** 1976 yilda tashkil etilgan, qarorgohi Rim shahrida. Fondning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ko'mak berish va buning uchun qo'shimcha mablaglar berishdan iborat.

**Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO)** 1944 yilda tashkil etilgan.

Uning qarorgoxi Monreal shaxrida. IKAO xalqaro aeronavigatsiyaning tamoyillari va usullarini rivojlantirish, xalqaro havo yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash, havo transportini rejalashtirish va rivojlantirshpni qo'llab-kuvvatlash kabi maqsadlarni ko'zlab tashkil etilgan.

**Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO)** 1948 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi

Londonda. Ushbu tashkilotning madsadi dengizda yuklarni tashish va dengiz savdosi sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va dengizda xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.



**Jahon pochta ittifoqi** 1874 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Bernda. Xalqaro pochta ittifoqining madsadi pochta aloqasini yo‘lga qo‘yish va uni yaxshilashdan iborat. Xalqaro pochta ittifoqiga a‘zo barcha davlatlar yagona pochta hududi tashkil etadilar va bu hududda ushbu hududning yagonaligi, tranzitning erkinligi va yagona tarifni o‘rnatish tamoyiliga amal qiladi.

**Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi** 1965 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining maqsadi elektron aloqaning barcha turlaridan samarali foydalanish va uni mukammallashtira borishga yunaltirilgan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, radio tulkinlarini taqsimlash, rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko‘rsatishdan iborat.

**Jahon metereologiya tashkiloti** 1947 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro metereologiya tashkilotining asosiy maqsadi metereologiya bo‘yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish, metereologiya xizmatining mukammallashib borishini ta‘minlash va uning yutuklaridan aviatsiya, kishlok xujaligi, kemalar katnovida va boshqa sohalarda foydalanishdir. Uning tezkor dasturi asosini bugun dunyo ob-havo xizmati tashkil etadi.



**Xalqaro sud** - BMTning asosiy sudlov organi. 1945 yilda tashkil topgan. Davlatlar o'rtasidagi yuridik nizolarni ularning roziligi bilan hal qiladi va huquqiy masalalar bo'yicha tavsiyaviy xulosalar beradi. 15 nafar sudyalardan iborat, ular BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi tomonidan 9 yilga saylanadi. BMT Ustavining ajralmas qismi hisoblanadigan Statut asosida ish olib boradi. Xalqaro sudi Gaaga shahrida joylashgan





## ***O'ZBEKISTONNING YUNESKO BILAN HAMKORLIK ALOQALARI***

"Biz YUNESKO timsolida eng muhim insonparvarlik masalalarining echimiga ijodiy yondashishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos betakror tashkilotni ko'ramiz"

***Islom Karimov***

O'zbekiston 1993 yil 26 oktabrda YUNESKO bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi va shu kunga qadar uning tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

1995 yil YUNESKOning "Ipak yo'li – muloqot yo'li" dasturi doirasida Samarqandda mintaqamiz tsivilizasiyalari tarixini o'rganadigan Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti ochildi.







## *O'ZBEKISTONNING YUNESKO BILAN HAMKORLIK ALOQALARI*

O'zbekistonning xalqaro aloqalardan, shu jumladan, YUNESKO bilan do'stona hamkorlikdan asosiy maqsadi – mamlakatimizni, boy tariximizni, xalqimizni ma'naviy yuksakligini va eng muhimi, mustaqil tashqi siyosatimizni dunyoga, xalqaro jamoatchilikka dunyo hamjamiyatiga ko'rsata olishdir.





## *O'ZBEKISTONNING YUNESKO BILAN HAMKORLIK ALOQALARI*

Mamlakatimizda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Axmad al-Farg'oniy, Burxoniddin Marg'inoniy, Imom Abu Mansur Moturudiy kabi buyuk bobokalonlarimizning, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, qarshi, Samarqand, Marg'ilon, Toshkent shaharlarining, "Alpomish" dostoni, "Avesto" va "Xorazm Ma'mun akademiyasning yubileylari YUNESKO ishtirokida nishonlangan





## O'zbekiston BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda faol qatnashdi.

I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 22-24-oktyabrda bo'lgan yubiley sessiyasida nutq so'zladi. U nufuzli xalqaro tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir takliflarni bayon etdi.

Umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan boshlanadigan jarayon ekanligi, mintaqalar xavfsizligini ta'minlash yo'li bilangina jahon xavfsizligini ta'minlash mumkinligi alohida ta'kidlandi. Afg'onistondagi urushga barham berish uchun unga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish, qurol olib kirishni ta'qiqlash takliflari ilgari surildi. Ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, qurol savdosini cheklash to'g'risida, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik muammoni hal etishga halqaro moliya tuzilmalarini va rivojlangan mamlakatlarni jalb qilish, BMTning tashkilotchilik ishini faollashtirish to'g'risida bir qator takliflarni ilgari surdi.



Birinchi president I.A.Karimov o'z nutqida mintaqada xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim va sog'liqni saqlash, BMT bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va faollashtirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish bo'yicha talaba yoshlarda bilim va ko'nikmalar majmuasini shakllantirishdan iborat.



## ***AFG'ONISTONDAGI VAZIYATNI BAHOLASH***

Xalqaro koalisiya kuchlari kontingentini 2019 yil oxirida, ya'ni mamlakatda o'zaro kurashayotgan kuchlarning qarama-qarshiligi saqlanib turgan bir sharoitda Afg'onistondan olib chiqib ketish rejalari, beqaror vaziyat keng mintaqada xavfsizlik uchun oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.



# Afg'oniston muammosini hal etish masalasi

- Afg'oniston muammosini hal etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.
- Ushbu mamlakatdagi vaziyat Markaziy Osiyo uchun doimiy tahdidni o'zida namoyon etmoqda.
- Mojaroning oqibatlari bevosita va o'ta salbiy ravishda global xavfsizlikka ham ta'sir ko'rsatmoqda.
- Xalqaro koalision kuchlar tomonidan tanlangan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish strategiyasi kutilgan natijalarni berayotgani yo'q.



## «6+3» muloqot guruhini tashkil etish tashabbusi

Tashabbusning mazmun-mohiyati shundan iboratki, afg'onistonliklar o'z mamlakati muammolarini o'zlari, Afg'onistonda urushning tugashi va unung barqaror kelajagidan manfaatdor mamlakatlar ko'magida hal etishlari darkor.

Muloqot guruhi tarkibiga AQSH, Rossiya, Afg'oniston bilan bevosita qo'shni mamlakatlar – O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Xitoy, Eron va Pokiston, hamda NATO kirishi zarur.



# «6+3» muloqot guruhini tashkil etish tashabbusi

«6+3» muloqot guruhining eng muhim maqsadi – bir-biriga qarshi kurashayotgan tomonlarga Afg'onistonda harbiy harakatlarni to'xtatish Dasturini taklif etish, mamkakatni parokanda qilayotgan asosiy muammo va ziddiyatlar bo'yicha o'zaro murosa asosidagi yechimlarni topishdan iborat.

Afg‘onistondagi vaziyat Markaziy Osiyo mamlakatlari xavfsizligining muhim aspekti hisoblanadi. O‘zbekiston tashabbusi va BMT ning qo‘llab-quvvatlashi bilan, afg‘on muammosini muhokama qilishga va regional xavfsizlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan “6+2” guruhi (qo‘shni mamlakatlar: Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Xitoy, hamda Rossiya va AQSh) tashkil qilingan edi. Guruhning birinchi uchrashuvi 1997 yilda Nyu-Yorkda, ikkinchisi – 1999 yil iyulda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi. 2008 yil aprelda Buxarestda NATO sammitida O‘zbekiston rahbari I.A. Karimov “6+2” tinchlik tashabbusining yana davom ettirilishi va kengaytirilishi va bu guruhga NATO ning kiritilishi bilan uning “6+3” ga aylantirilishining maqsadga muvofiq ekanligi to‘g‘risida taklif kiritdi, qaysiki, u Afg‘onistonda vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha birgalikdagi harakatlarni aniqlashda kuchlarni birlashtirishga yordam berishi mumkin edi. Ushbu formatda Afg‘onistonni rekonstruksiya qilishning yirik donorlari – Hindiston, Yaponiya va boshqa manfaatdor mamlakatlarning ishtiroki – yanada samaraliroq xalqaro dialogga yordam berishi mumkin edi.



- Muzokaralar barcha asosiy mojarolashayotgan kuchlar bilan olib borilishi zarur.
- Dasturda iqtisodiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy, infratuzilma va gumanitar loyihalarni amalga oshirish, aholi bandligi muammolarini, qashshoqlik, huquqsizlikka qarshi kurash bo'yicha eng dolzarb vazifalarni hal etishga alohida e'tibor berilishi lozim.
- Afg'oniston xalqi amal qiladigan ko'p asrlik an'analar, urf-odatlar, Islom dinining qadriyatlari to'liq hurmat qilinishi zarur
- Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun hozircha Afg'onistonda turgan tinchlikparvar koalisiya kuchlari yordam berishi mumkin.




# *O'zbekistonning yirik va rivojlangan davlatlar bilan aloqalari*



O'zbekiston – Rossiya



O'zbekiston - AQSH



O'zbekiston - Xitoy



O'zbekiston – Yaponiya



O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi davlatlari  
(*Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya*)






# Ўзбекистоннинг йирик ва ривожланган давлатлар билан алоқалари



Ўзбекистон – Россия



Ўзбекистон - АҚШ



Ўзбекистон - Хитой



Ўзбекистон – Ҳиндистон



Ўзбекистон - Европа Иттифоқи давлатлари (Германия ва Франция)



# *O'zbekistonning yirik va rivojlangan davlatlar bilan aloqalari*

- O'zbekiston – Janubiy Osiyo davlatlari (*Hindiston, Pokiston*)
- O'zbekiston – Yaqin Sharq va Arab davlatlari
- O'zbekiston – Lotin Amerikasi davlatlari
- O'zbekiston - Afrika davlatlari



O'zbekiston 1992 yil fevral oyida tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot - Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga (EXHT) a'zo bo'lib kirdi. I.Karimov 1992 yil 9-10 iyulda bo'lib o'tgan Evropada xavfsizlik va hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etib, 10 iyulda bo'lgan majlisida raislik qildi. 1994 yil 28-30 sentyabrda Toshkentda EXHTning xalqaro anjumani o'tkazildi. EXHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo'yicha seminarlar o'tkazdi. Mazkur xalqaro tashkilot Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda. 1995 yil iyulda Toshkentda EXHTning mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. 1995 yil iyul oyida O'zbekiston NATOning "tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturiga qo'shildi. "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida 1995 yilda AQShda, 1997 yili Qozog'iston va O'zbekistonda o'tkazilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko'tarishga xizmat qildi. O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatining a'zosidir.



# **O'zbekiston quyidagi xalqaro tuzilmalar bilan aloqalarni yangi bosqichda davom ettirmoqda**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Islom hamkorlik tashkiloti

Shanxay hamkorlik tashkiloti

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligimiz tiklandi, Evropa investisiya banki bilan sheriklik aloqalari o'rnatildi. Jahon banki, xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investisiyalar banki bilan o'zaro hamkorlik samarali tus olmoqda.

Markaziy Osiyoda MDH davlatlari, G'arb va Sharqning eng muhim mamlakatlari manfaatlari o'zaro kelishadi

